IPAK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONINING TEXNOLOGIK VA SIFAT KO'RSATKICHLARI	1077
Mahmudov Umidjon Bahodir o'g'li, Turdialiyeu Umid Muxtaraliyevich, Sulaymonov Sharifjon Abdumanabovich	
QORAQALPOG'ISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1085
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH ORQALI HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1089
Ibragimova Ma'mura Muxiddinova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA ULARNING AHAMIYATI.....	1094
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КАРАКАЛПАКСТАНА В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ	1098
Оспанова Феруза Базарбаевна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	1103
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
INVESTITSIYA DASTURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MENEJMENT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI.....	1107
Axmedova Dilnoza Muzaffarovna	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РЫНОК ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ, ТЕНДЕНЦИИ И СТРАТЕГИИ АДАПТАЦИИ	1112
Хусайнов Р.Р., Кариева Л.С., Загидулина К.Р.	
KONUSSIMON SHAKLDAGI TIBBIY ENDOPROTEZLAR UCHUN TAYYOR SHAKLGA YAQIN ZAGOTOVKALAR OLIISHNING RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYASI	1121
Umarova Maxmuda Abdugafarovna, Karabayeva Lola Xasanovna	



KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	1125
Mahmudova Nargiza Davlat qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	1129
Даниярова Улбосин Куатбаевна	
ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES ON REGIONAL PRODUCTION, SERVICE SECTOR DEVELOPMENT, AND EMPLOYMENT	1135
Kurbonova Malika Akhmad kizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ	1140
Ходжаева Хадия Сулейманова	
IMPROVING INTEREST RATE RISK MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS AND ITS PRIORITIES	1146
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARNING USTUNLIGI	1151
Mirzaxonova Mexribon Marat qizi, Raxmonova MahliyoXon Avazjon qizi, Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA ENERGIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASHDA ARIMA MODELIDAN FOYDALANISH	1159
Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich	
IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	1163
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1172
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI	1178
Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI	1183
Uralov Shavkat Makhramovich	
INNOVATION TEXNOLOGIYALARNI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARI	1188
Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1193
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI	1198
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH	1204
Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI	1209
Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1215
Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH	1221
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1225
G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li	
MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1232
Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1237
Tuyinov Botir Ismatovich	
THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND VALUES IN INSTITUTIONAL TRANSFORMATION PROCESSES.....	1243
Abdumajeed Nabeel Azouz	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ HR-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.....	1250
Амирджанова Ситора Суннатовна, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммадович, Урозбоев Хайрулла Муродбойевич, Маматкулов Хумоюн Бобирович	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH VA MAHALLIY BOSHQARUV VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	1255
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SIYOSAT	1260
Shokirov Firdavsbek Ulug'bekovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHNI BAHOLASH METODOLOGIYASINING ILMIY MUAMMOLARI	1265
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
TRANSPORT TIZIMIDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1271
Sevara Aytieva Allaberdievna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIKNI QOPLASH ME'YORI (LCR) DINAMIKASI VA LIKVIDLIK BOSHQARUVI SAMARADORLIGI	1279
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	1286
Xikmetov Nodirbek Ikromovich	
O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZM DESTINATSIYALARINING HUDUDIY RIVOJLANISHI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1293
Ibroximov Nodirbek	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOY TA'MINOTINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARI.....	1299
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1302
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA SUG'URTA XIZMATLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI.....	1306
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS AND CURRENT STATE OF INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	1310
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MANAGEMENT SYSTEM TRANSFORMATION AS A STRATEGIC DRIVER OF SUSTAINABLE PRODUCTION EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	1317
Kodirov Bekzod Khomidjonovich	



O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	1322
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INNOVATSION MEXANIZMLARI	1327
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
MINTAQANING TURISTIK VA DAM OLIH MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH.....	1332
Q.A. Musaxanov	
CHORVACHILIK INFIRATUZILMASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	1336
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТЬ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1340
Усманова Диляфруз Каршиевна	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	1344
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTI RISKLARINI BAHOLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY JIHATLARI	1351
Sattorov Shohrux Maxmudjon o'g'li	
AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH HAMDA UMUMLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1358
I.Yeshpanov	
O'ZBEKISTONDA O'RMON XO'JALIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA MOLIVALASHTIRISH	1365
Karimov Dilshod Turabbоеvich	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI ...	1370
Saipnazarova Mohinur Utkir qizi	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI JALB QILINGAN MABLAG'LAR HISOBIDAN MOLIVALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1373
Amonova Dilafro'z O'tkurovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	1377
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA BANKLARARO RAQOBATNING YANGI SHAKLLARI	1384
Karimov Odiljon Boqiyevich	
LOGISTIKA TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA ULARNING IQTISODIY TAHLILI.....	1394
Kucharova Shaxlo Sobir qizi	
MILLIY SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA XIZMATLARINI BOSHQARISH VA UNING OPTIMALLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1399
Umirov Abdusalom To'rayevich	
MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR (IFRS 9) HISOB	1406
Zaripova Sayohat Zafarovna	
PLYONKA QOPLAMALI POLIZ EKNLARI EKISH TEXNIKASIDA PUSHTA SHAKLLANTIRUVCHI ISHCHI ORGANLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1411
Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGIDA TO'LOVLAR TIZIMINING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI.....	1416
Tangirqulov G'ulom Baxtiyrovich	



KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVIDA SMART TEXNOLOGIYALARNING SHAKLLANISHI	1421
Mamaraimov Ilhomjon Rajabboyevich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA KAPITAL TUZILMASI VA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK DARAJASI	1427
Asomidinova Mohigulbonu Oybek qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1432
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
ASSESSMENT OF PRICING STRATEGIES APPLIED BY LEADING RETAIL CHAINS IN UZBEKISTAN	1438
Anvar DEBERDIYEV	
ZARAFSHON VODIYSIDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1442
Turayev Abduvoxid Kuldashovich	
THE IMPACT OF DIGITAL BANKING SERVICES ON FINANCIAL INCLUSION AND POPULATION WELFARE	1448
Olimjon Narkulovich Djuraev, Ermuminov Elbek Erkin o'g'li	
AGROKLASTERLARNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	1454
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	1460
Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH: NAZARIYA VA AMALIYOT	1466
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li	
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA SUBSIDIYA MABLAG'LARINING NATIJADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI	1473
Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RISK-MENEJMENT TIZIMINI ZAMONAVIY BOSHQARUV MODELLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	1479
Ashurov Furkatjon Shuxratovich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM YO'NALISHLARI	1483
Ulmasova Oyul Baxtiyorovna	
SOLIQ NIZOLARINI HAL ETISHDA MUQOBIL NIZOLARNI BARTARAF ETISH USULLARINING IQTISODIY AHAMIYATI	1490
Solihova Xumora Xasan qizi	
TABIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANUVCHI JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YECHIMLAR	1493
Hasanov Husinboy Xudayberganovich	
SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT VA NAZORAT TIZIMINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1499
Xusanova Malohat Mingnorovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MEXANIZMINING KORXONALAR MOLIVAVIY-XO'JALIK FAOLIYATIGA TA'SIRINI TAHLILIY VA INSTITUTSIONAL BAHOLASH	1505
Babaxonov Ja'far Muxiddinovich	
YOQILG'I-ENERGETIKA KORXONALARIDA INVESTITSIYA XARAJATLARINI TARIF SIYOSATI ORQALI QOPLASH MEXANIZMLARI	1513
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
ЭЛЕМЕНТЫ СТАТИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ	1521
Рахимова Мадина Шухрат кизи	



INFRATUZILMA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING ZARURATI VA UNING SHAKLLARI	1527
Shodiyev Akmal O'ktamjon o'g'li	
MINTAQALAR KESIMIDA RAQAMLI INFRATUZILMA RIVOJLANISHINING IQTISODIY TAHLILI	1534
Qurbonova Malika Axmad qizi	
TURISTIK DESTINATSIYALARNI BOSHQARISHDA MANFAATDOR TOMONLAR O'RTASIDA SAMARALI HAMKORLIKNI BAHOLASH MEZONLARI	1539
Irgasheva Feruza G'ayratovna	
DAVLAT QARZI VA INFLATSIYANING O'ZARO TA'SIRINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1543
Narkuziyev Anvar Rustamovich	



DAVLAT QARZI VA INFLATSIYANING O'ZARO TA'SIRINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Narkuziyev Anvar Rustamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası dotsenti
E-mail: anvar.norquziyev824@gmail.com
ORCID: 0009-0008-4211-8548

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy asoslari hamda ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri O'zbekiston misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda keynschilik, monetar va fiskal nazariyalar doirasida davlat qarzining pul massasi, budjet taqchilligi va narxlar darajasi bilan bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, davlat qarzini monetizatsiya qilish, fiskal dominantlik va qarz yukining inflyatsion bosimga ta'siri masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, inflyatsiya, fiskal siyosat, monetar siyosat, budjet taqchilligi, pul massasi, fiskal dominantlik, makroiqtisodiy barqarorlik, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы взаимосвязи государственного долга и инфляции, а также их влияние на макроэкономическую стабильность на примере Республики Узбекистан. Исследование основано на кейнсианских, монетаристских и фискальных теориях; анализируется взаимосвязь между государственным долгом, денежной массой, бюджетным дефицитом и динамикой цен. Особое внимание уделено вопросам монетизации долга, фискального доминирования и инфляционных последствий роста долговой нагрузки.

Ключевые слова: государственный долг, инфляция, фискальная политика, денежно-кредитная политика, бюджетный дефицит, денежная масса, фискальное доминирование, макроэкономическая стабильность, экономика Узбекистана.

Abstract. This article explores the theoretical foundations of the relationship between public debt and inflation and analyzes their macroeconomic implications in the case of Uzbekistan. The study is based on Keynesian, monetarist, and fiscal theories, examining the interconnection between public debt, money supply, budget deficit, and price dynamics. Particular attention is given to debt monetization, fiscal dominance, and the inflationary impact of rising debt levels.

Keywords: public debt, inflation, fiscal policy, monetary policy, budget deficit, money supply, fiscal dominance, macroeconomic stability, Uzbekistan's economy.

KIRISH

Zamonaviy makroiqtisodiy sharoitda, ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida narxlar barqarorligini ta'minlash iqtisodiy o'sishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Inflyatsion xatarlarning kuchayishi nafaqat pul-kredit omillari, balki davlat xarajatlarining keskin ortishi va fiskal budjet taqchilligining kengayishi bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli Markaziy bank tomonidan yuritilayotgan monetar siyosat va hukumatning fiskal strategiyasini o'zaro muvofiqlashtirish, ya'ni "aralash siyosat" konsepsiyasini amaliyotga samarali tatbiq etish inflyatsiyani pasaytirishga xizmat qiluvchi muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda inflyatsion targetlash rejimiga to'liq o'tish sharoitida fiskal dominantlik xavfini kamaytirish va budjet intizomini kuchaytirish zarurati mavjud, deb hisoblaymiz. Bu esa uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda institutsional hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida davlat qarzi va inflyatsiyani samarali boshqarish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning jadallashuvi, tashqi moliyaviy resurslardan faol foydalanish hamda fiskal kengayish siyosatining kuchayishi davlat qarzining o'sishiga olib kelgan bo'lsa, shu bilan birga, inflyatsion bosimlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, global iqtisodiy beqarorlik, tashqi savdo sharoitlarining o'zgaruvchanligi va ichki bozordagi strukturaviy nomutanosibliklar ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada murakkablashtirmoqda.


MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi. J.M. Keynes davlat xarajatlari va qarz mablag'laridan iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida foydalanish mumkinligini asoslagan. M. Friedman esa inflyatsiyaning shakllanishida pul massasining o'sishiga alohida e'tibor qaratgan. T. Sargent va N. Wallace fiskal siyosatning monetar siyosatga ustun kelishi uzoq muddatda inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatgan. R. Barro davlat qarzining iqtisodiy subyektlar qarorlariga ta'sirini rikardochilik ekvivalentligi nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. XVJ va Jahon banki tadqiqotlarida esa qarz barqarorligi, budjet intizomi hamda pul-kredit va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy umumlashtirish, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil va grafik usullardan foydalanildi. Davlat qarzi, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, asosiy stavka va budjet taqchilligi ko'rsatkichlarining yillar bo'yicha o'zgarishi tahlil qilindi. Shuningdek, davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik fiskal hamda monetar siyosatning o'zaro ta'siri doirasida baholandi. Tahlilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, XVJ va Jahon banki ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR



1-rasm. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish dinamikasi, foizda¹

Grafik tahlili shuni ko'rsatadiki, 2010-yildan 2015-yilgacha bo'lgan davrda iqtisodiy o'sish sur'atlari nisbatan yuqori va barqaror (taxminan 107–108% atrofida) saqlanib qolgan. Biroq 2017-yilda ko'rsatkichning 104,7% gacha sezilarli pasayishi kuzatilgan. Bu iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlar, valyuta siyosatining liberallasuvi va tashqi bozorlardagi o'zgarishlarning dastlabki ta'siri bilan izohlanishi mumkin. 2018–2019-yillarda esa iqtisodiyot yana o'zini tiklab, o'sish sur'atlari qayta ko'tarila boshlaganini ko'rish mumkin. Davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi munosabat iqtisodiy nazariyalarda turlicha talqin etilib, ular o'rtasidagi bog'liqlik fiskal va monetar siyosatning uyg'unligi orqali namoyon bo'ladi. Xususan, davlat qarzining ortishi budjet taqchilligini moliyalashtirish zaruratini yuzaga keltiradi, bu esa ayrim hollarda pul massasining kengayishiga va natijada inflyatsiya darajasining oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, inflyatsiyaning yuqori darajasi real qarz yukining kamayishiga xizmat qilsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida davlat qarzi va inflyatsiyani barqaror boshqarish istiqbollari institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, fiskal intizomni mustahkamlash, pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, inflyatsion targetlash rejimiga o'tish, davlat qarzini boshqarish strategiyasini takomillashtirish va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Grafikdagi sezilarli pasayish 2020-yilga to'g'ri kelib, ko'rsatkich 101,6% gacha kamaygan. Bu holat, asosan, global COVID-19 pandemiyasi davrida joriy etilgan cheklovlar va savdo aloqalaridagi uzilishlar bilan izohlanadi. Shunga qaramay, 2021-yilda iqtisodiyotda tiklanish effekti kuzatilib, o'sish ko'rsatkichi 108,2% gacha ko'tarilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi




So'nggi yillarda (2022–2024) esa o'sish sur'atlari 106–107% oralig'ida barqarorlashgan, bu esa iqtisodiyotning tashqi zarbalardan so'ng o'zining o'rta muddatli barqaror rivojlanish trayektoriyasiga qaytganidan dalolat beradi.

XVJ ekspertlarining so'nggi hisobotlariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti tashqi geosiyosiy noaniqliklarga qaramay, barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Jamg'arma 2025–2026-yillarda YaIM o'sishini 6,8–6,0 foiz atrofida prognoz qilar ekan, bu jarayonda narxlar barqarorligini ta'minlash asosiy ustuvor vazifa bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Makroiqtisodiy muvozanatni saqlashda davlat qarzining YaIMga nisbatan mo'tadil darajasi va inflyatsiyani jilovlash bo'yicha ko'rilyotgan choralar o'zaro uzviy bog'liq holda tahlil qilinmoqda.

Grafikning boshlanishida, ya'ni 1990-yillarning o'rtalarida, asosiy stavkaning keskin yuqori bo'lganini (rekord darajadagi 300% gacha) ko'rish mumkin. Bu holat o'sha davrdagi yuqori inflyatsiya va iqtisodiy beqarorlikni kamaytirishga qaratilgan nisbatan qat'iy pul-kredit siyosati bilan izohlanadi. 1996-yildan keyin iqtisodiyotning nisbiy barqarorlashishi natijasida stavka tez pasaya boshlagan va 2000-yillarning boshiga kelib 20–40% atrofida birmuncha "yumshoqroq" darajaga tushgan.


2010-yildan keyingi davrda stavka uzoq vaqt past va barqaror darajada (taxminan 10–15%) saqlanib qolgan. Biroq 2017-yildagi valyuta liberallashuvi va undan keyingi inflyatsion targetlash rejimiga o'tish jarayonida stavka yana biroz ko'tarilib, bozor sharoitlariga moslasha boshladi. So'nggi yillarda, xususan, pandemiya va global geosiyosiy o'zgarishlar davrida (2020–2023), Markaziy bank narxlar barqarorligini ta'minlash uchun stavkani 14–17% atrofida ushlab turgani grafikda aniq aks etgan.



2-rasm. Asosiy stavka dinamikasi, foizda²

XVJ Markaziy bankning "nisbatan qattiq" monetar siyosat yuritish borasidagi pozitsiyasini to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Jamg'arma xulosasiga ko'ra, inflyatsiyani 5 foizlik maqsadli ko'rsatkichga (targetga) tushirish jarayoni 2026-yil oxiri yoki 2027-yil boshiga qadar davom etishi kutilmoqda. Bu jarayonda asosiy stavkaning yillik 14 foiz darajasida saqlanishi inflyatsion kutilmalarni jilovlash va iqtisodiyotdagi pul massasining asossiz o'sishining oldini olishda muhim dastak bo'lib xizmat qiladi.

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari



3-rasm. Davlat qarzining YoIMga nisbati, foizda³


Grafik tahlili shuni ko'rsatadiki, 2000-yillarning boshida davlat qarzining YoIMga nisbati ancha yuqori bo'lib, 2001-yilda o'zining eng yuqori nuqtasi — 59,4% ga yetgan. Shundan so'ng 2014-yilga qadar ko'rsatkichning izchil va keskin pasayishi kuzatiladi va u rekord darajadagi minimal 7,6% gacha tushadi. Ushbu davrdagi tendensiya mamlakatning tashqi qarzдорlikka nisbatan ehtiyotkor yondashuvi, xalqaro moliya bozorlaridan cheklangan holda foydalanishi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining tashqi qarz o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi. Bu esa o'sha davrda mamlakatning fiskal barqarorligini yuqori darajada ta'minlashga xizmat qilgan.

2017-yildan boshlab iqtisodiyotning liberallashtirish va tarkibiy islohotlarning jadallashishi davlatning qarz siyosatidagi yangi bosqichni boshlab berdi. Grafikda 2020-yilda qarz yukining 40,4% gacha ko'tarilgani yaqqol ko'rinadi. Bu, asosan, global pandemiya oqibatlarini yumshatish va yirik davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish uchun jalb qilingan mablag'lar natijasidir. Biroq 2021-yildan boshlab ko'rsatkichning barqarorlashib, 2025-yilga kelib 31,9% atrofida bo'lishi kutilayotgani hukumatning fiskal qoidalarini joriy etish va qarz barqarorligini nazorat qilishga qaratilgan harakatlarini aks ettiradi. Hozirgi daraja xalqaro amaliyotdagi maqbul ko'rsatkichlar doirasida baholanib, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

XVJning "Qarz barqarorligi tahlili" (Debt Sustainability Analysis) natijalari O'zbekistonning davlat qarzini "mo'tadil xavf" (moderate risk) darajasida baholaydi. Qarzning YoIMga nisbatan 35–37 foiz atrofida saqlanib turishi xalqaro amaliyotda nisbatan maqbul daraja sifatida baholanadi. Biroq Jamg'arma tashqi qarzning asosiy qismi xorijiy valyutada ekanligini inobatga olib, milliy valyuta kursidagi tebranishlar qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlariga ta'sir qilishi mumkinligiga e'tibor qaratadi.

XVJ tomonidan davlat qarzini boshqarishda shaffoflikni oshirish bo'yicha tavsiyalar doimiy ravishda berib kelinadi. O'zbekistonda yillik tashqi qarz olish limitining (5 mlrd dollar) qonun bilan belgilanishi va qarz boshqaruvining bosqichma-bosqich parlament nazoratining kuchaytirilishi xalqaro investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Bu tizim qarz mablag'larini iqtisodiy samaradorligi yuqori va o'zini o'zi qoplash imkoniyatiga ega loyihalarga yo'naltirishga xizmat qiladi.

3 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari



4-rasm. Konsolidatsiyalashgan budjet budjet taqchilligining YaIMga nisbati va inflyatsiya dinamikasi, foizda⁴

Grafik tahlili 2019–2025-yillar oralig'ida inflyatsiya darajasining umumiy pasayish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatmoqda. 2019-yilda 15,2% bo'lgan yuqori ko'rsatkich 2021-yilga kelib 10,0% gacha pasaygan bo'lsa-da, 2022-yilda global miqyosdagi oziq-ovqat va energiya resurslari narxlarining o'sishi sababli qayta 12,3% gacha ko'tarilgan. Shunga qaramay, 2023-yildan boshlab inflyatsiyaning barqaror pasayishi va 2025-yilda 7,3% gacha tushishi prognoz qilinmoqda. Bu esa Markaziy bank tomonidan qo'llanilayotgan inflyatsion targetlash rejimi va pul-kredit siyosati tashqi iqtisodiy ta'sirlar sharoitida narxlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Konsolidatsiyalashgan budjet budjet taqchilligi dinamikasi iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat xarajatlarining o'zgaruvchanligini aks ettiradi. Ayniqsa, 2021 va 2023-yillarda budjet taqchilligining mos ravishda YaIMga nisbatan -5,6% va -5,5% gacha kengayishi ijtimoiy himoya, infratuzilma loyihalari va energetika subsidiyalari uchun katta mablag'lar yo'naltirilganini ko'rsatadi. Grafikning yakuniy qismida (2024–2025-yillar) budjet taqchilligining -2,1% gacha qisqarishi kutilayotgani hukumatning "fiskal konsolidatsiya" (budjet intizomini kuchaytirish) siyosatiga o'tayotganini tasdiqlaydi. Budjet taqchilligining kamayishi, o'z navbatida, iqtisodiyotdagi yalpi talabni muvozanatlashtirish orqali inflyatsiyani jilovlashda muhim makroiqtisodiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

XVJ hisobotlarida inflyatsiyani pasaytirishning eng samarali yo'li sifatida fiskal konsolidatsiya, ya'ni budjet xarajatlarini optimallashtirish ko'rsatilgan. 2024-yilda budjet taqchilligini YaIMga nisbatan 4 foizgacha, 2025-yildan boshlab esa 3 foizdan oshirmaslik bo'yicha hukumat majburiyatlari XVJ tomonidan ijobiy baholandi. Fiskal impulsning kamayishi iqtisodiyotda yalpi talabni muvozanatlashtiradi va bu Markaziy bankka inflyatsiya bilan kurashishda qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat qarzi va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy nazariya rivojlanishi davomida oddiy va bir yo'nalishli munosabat sifatida emas, balki murakkab makroiqtisodiy tizim elementi sifatida shakllanganligi aniqlandi. Klassik va neoklassik yondashuvlarda fiskal intizom va muvozanatli budjet ustuvor bo'lgan bo'lsa, keynscha yondashuv davlat qarzini iqtisodiy sikllarni yumshatuvchi vosita sifatida talqin qildi, monetarizm esa qarzning inflyatsiyaga ta'sirini uning monetizatsiyasi orqali tushuntirdi. Zamonaviy fiskal nazariya va DSGE modellari esa qarz, inflyatsiya, foiz stavkalari, kutilmalar va institutlar o'rtasidagi o'zaro endogen bog'liqlikni asoslab berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat qarzining inflyatsiyaga ta'siri, avvalo, uning qanday moliyalashtirilishiga bog'liq. Agar budjet taqchilligi bozor vositalari orqali, markaziy bank mustaqilligi tamoyillariga rioya etilgan holda moliyalashtirilsa, yuqori qarz darajasi ham avtomatik ravishda yuqori inflyatsiyani keltirib chiqarmaydi. Aksincha, budjet taqchilligining pul emissiyasi yoki markaziy bankning bilvosita moliyaviy ko'magi orqali qoplanishi pul massasining ortishiga, inflyatsion kutilmalarning kuchayishiga va narxlar barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, qarz va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlikning markaziy omili qarz hajmidan ko'ra, uning moliyalashtirish rejimidir.

Xulosa qilib aytganda, davlat qarzini boshqarishning asosiy maqsadi uning barqaror darajasini ta'minlash, qarz yukining makroiqtisodiy muvozanatga salbiy ta'sirini minimallashtirish hamda narxlar barqarorligini saqlashdan

4 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy banki ma'lumotlari



iboratdir. Shuning uchun ham davlat qarzi siyosati fiskal intizom, samarali qarz boshqaruvi va mustaqil pul-kredit siyosati bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. London: Macmillan.
2. Friedman, M. (1968). The Role of Monetary Policy. *American Economic Review*, 58(1), 1–17.
3. Sargent, T. J., & Wallace, N. (1981). Some Unpleasant Monetarist Arithmetic. *Federal Reserve Bank of Minneapolis Quarterly Review*, 5(3), 1–17.
4. Barro, R. J. (1974). Are Government Bonds Net Wealth? *Journal of Political Economy*, 82(6), 1095–1117.
5. International Monetary Fund. (2023). *Fiscal Monitor: On the Path to Policy Normalization*. Washington, DC: International Monetary Fund.
6. World Bank. (2022). *Uzbekistan Public Expenditure Review: Better Value for Money in Human Capital and Water Infrastructure*. Washington, DC: World Bank.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023–2025). *Pul-kredit siyosati sharhlari va inflyatsiya bo'yicha hisobotlar*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100